

# E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 29<sup>th</sup> May 2024

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

## FUQAROLARNING HUQUQ VA BURCHLARI

Abrurahmonova Nodira Xusnuddinova

Ilmiy rahbar

Safaraliyeva Shahrizoda

Toshkent tibbiyot akademiyasi sog'liqni saqlash menejmenti  
fakulteti 2-bosqich talabasi

### Anotatsiya:

Ushbu maqolada fuqarolar huquqlarini konstitutsion himoya qilinishini va shuningdek ularning hukumat oldidagi burchlari to'g'risida atroficha fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiya, huquq, qonun, erkinlik

**Fuqarolarning huquq va burchlari** — fuqarolarning Konstitutsiya va qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan asosiy huquq va burchlari. Ular davlat organlari tomonidan muhofaza etiladi va bajarilishi nazorat qilinadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-bo'limida fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari quyidagicha turkumlanadi: 1) Shaxsiy huquq va erkinliklar; 2) Siyosiy huquqlar (qarang siyosiy huquq va erkinliklar); 3) iqtisodiy-ijtimoiyhuquqlar (qarang Iqtisodiyhuquqvaerkinliklar).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning quyidagi burchlari ko'rsatilgan: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarining huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadrqimmatini hurmat qilishga; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga; atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar

**Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari** - insonga bekamu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maqom.

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 29<sup>th</sup> May 2024

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O‘zR Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar: qonunlarning mazmuni va qo‘llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi; O‘zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan qat’i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo‘li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o‘zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘l qo‘yilmaslikka, ijtimoiyadolat va hamjihatlikni ta’minalashga qaratilgan. O‘zRda I. va f. h. va e. amalga oshirilishiga davlat kafolat beradi. O‘z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konsti-tutsiyada ta’kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me’yorlariga rioya etishi zarur. Umum e’tirof qilgan mazkur xalqaro me’yoriy manbalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsi-yasi, Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya va O‘zR qo‘silgan yana bir qator xalqaro hujjatlardir.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar – bu shaxsning huquq va erkinliklarini hukumatlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qilaligan, jamiyat va davlatning fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va repressiyalarsiz ishtirok etish imkoniyatini ta’minalaydigan huquqlar sinfidir.

Fuqarolik huquqlari shaxslarning jismoniy va aqliy yaxlitligini, hayoti va xavfsizligini ta’minalashni o‘z ichiga oladi hamda ularga irqi, dini, millati va boshqa shaxsiy xususiyatlaridan qat’i nazar, teng ijtimoiy imkoniyatlarni va qonun tomonidan baravar himoya qilishni ta’minalaydi. Ba’zi fuqarolik huquqlariga yashash, shaxsiy daxlsizlik huquqlari, so‘z, harakatlanish, vijdon, shaxsiy hayot erkinligi va boshqalar kiradi.

Siyosiy huquqlar shaxslarning davlat va jamiyat hayotida erkin ishtirok etishiga imkon beradi. Bunga ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash kiradi. Siyosiy huquqlarga ovoz berish huquqi, davlat lavozimlariga nomzod bo‘lish huquqi, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazish huquqi, uyushmalar tuzish huquqi va boshqalar kiradi.

Fuqarolik huquqlari inson huquqlari sifatida universal bo‘lsa-da, siyosiy huquqlar ko‘pincha fuqarolar (faqatgina ma’lum bir davlat fuqarolari uchungina) bilan



## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 29<sup>th</sup> May 2024

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

cheklanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar turli xalqaro va mintaqaviy shartnomalar, davlatlarning milliy konstitutsiyalari bilan himoya qilinadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt ushbu huquqlarni xalqaro darajada himoya qilishni ta’minlaydigan eng keng qamrovli shartnomalar hisoblanadi.

Inson huquqlarining muhim turlaridan biri - ikkinchi avlod inson huquqlariga doir ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar. Ularni amalga oshirish kafolatlari to‘liq davlatga bog’liqdir.

**Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar** insonning yashash sharoitlarini, o‘z qobiliyatlaridan foydalanishini, insonning avtonomligi va jamiyatdagi iqtisodiy aloqalarini, shuningdek uning ijtimoiy himoyalanganligini belgilaydi.

**Madaniy huquqlar** insonning konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohada o‘zini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadigan inson huquqlari va erkinliklarining maxsus majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar kafolatlangan:

### Foydalanadigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Taxirovna, Y. Z. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУР И ФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ВЕЩЕСТВ МЕТОДАМИ МОЛЕКУЛЯРНОЙ АКУСТИКИ. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, 3(26), 177-180.
2. Taxirovna, Y. Z. (2023). NOAN’ANAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANIB ELEKTR TA’MINOTIDAGI ISHONCHLILIKNI OSHIRISH. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 89-92.
3. Taxirovna, Y. Z. (2023). FIZIKANI O ‘QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDANFOYDALANISH USULLARI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(22), 103-107.
4. Takhirovna, Y. Z. (2024). EFFECT OF ELECTRIC CURRENT ON THE HUMAN BODY. *Science and innovation*, 3(A2), 183-186.
5. TAXIROVNA, Y. Z. (2024). Namlik va uning turlari. *Science Promotion*, 5(1), 374-377.

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 29<sup>th</sup> May 2024

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

6. Азларова, А. (2020). РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БАНКЛАРГА РАҚОБАТБАРДОШ МУТАХАССИС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*.
7. Платонова, Ю. Ю., & Жерлицина, А. И. (2022). Современное состояние дистанционного банковского обслуживания в России. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (7), 176-179.
8. Sabirovna, G. G. (2022). Advantages And Disadvantages of Financial Globalization. *Res Militaris*, 12(4), 2159-2163.
9. Gulyamova, A., & Gulyamova, G. (2023). Use Of Innovative Services In The Development Of Retail Trade Banking System [Использование Инновационных Услуг В Развитии Розничной Торговли Банковской Системы]. *Paradigms of management, economics and law*, 58-67.
10. Ибодуллаев, Ш., & Бакоева, Г. (2021). Актуальные вопросы развития банковской системы Республики Узбекистан. *Общество и инновации*, 2(2/S), 179-186.
11. Ибодуллаев, Ш., & Бакоева, Г. (2021). Current issues of the banking system development of the republic of Uzbekistan. *Общество и инновации*, 2(2/S), 179-186.
12. Bakoeva, G. M., & Ibodullaev, S. T. (2021). FOREIGN TRADE ACTIVITIES OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).
13. Bakoeva, G. M. (2023, August). PECULIARITIES OF THE CURRENT SITUATION OF THE BANKING IPO MARKET. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 78-81).
14. Salokhiddinovna, D. G. (2021). Practical technological system for use of mariamontessori technique in development of fine motor skills of children in organization of preschool education. *ACADEMIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 698-706.
15. Atikah, C., & Biru, L. T. (2024). STEAM-based Learning to Enhance Early Childhood Creativity. *International Journal of STEM Education for Sustainability*, 4(1), 164-175.
16. Gafurova Salokhiddinovna, D. (2023). ADVANTAGES OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION.

## **E- Global Congress**

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 29<sup>th</sup> May 2024

**Website:** <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

- 
17. Salokhiddinovna, G. D. (2023). Use of Steam Technology in Forming Creative Skills of Preschool Children. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 209-212.